



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI
BUYRUG‘I

2021-y. “30” iyul

383 /Ch-sonli

**Sportning basketbol turi bo‘yicha
2007-2008-yillarda tug‘ilgan o‘smirlar
o‘rtasida BO‘BL 2-tur musobaqasini
o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligining sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining 2021-yil uchun respublika kalendar rejasiga muvofiq

BUYURAMAN:

1. Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining 2021-yil 9-iyuldagi 238-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sportning basketbol turi bo‘yicha 2007-2008-yillarda tug‘ilgan o‘smirlar o‘rtasida BO‘BL 2-tur musobaqasi (bundan buyon matnda musobaqa deb yuritiladi) 2021-yil 30-iyul–4-avgust kunlari Sirdaryo viloyati, Guliston shahrida o‘tkazilsin.

3. Musobaqada ishtirok etuvchi xodimlar tarkibi 1-ilovaga, musobaqani o‘tkazish sarf-xarajatlar smetasi 2-ilovaga, musobaqaning ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ‘ib qilishga qaratilgan media-reja 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Moliya-iqtisodiyot departamenti (B.Mirzaxmedov)ga:

a) musobaqani o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni vazirlikning sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining 2021-yil uchun respublika kalendar rejasida 2.1.4-basketbol bo‘limida belgilangan mablag‘lar hisobidan qoplanishini nazarda tutish;

b) musobaqaning sarf-xarajatlar smetasiga muvofiq mablag‘larni Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazib berilishini ta’minlash;

5. Musobaqa bosh hakami va hakamlarning ovqatlanish xarajatlari ularning bank plastik kartochkalariga pul o‘tkazish yo‘li orqali amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi (J.Akramov)ga:

a) musobaqa uchun ajratilgan mablag‘larni maqsadli sarflash;

b) musobaqa yakunidan so‘ng uch kun muddat ichida vazirlikning Moliya-iqtisodiyot departamentiga mablag‘larning sarflanishi bo‘yicha moliyaviy hamda olimpiya sport turlarini rivojlantirish boshqarmasiga texnik hisobotlarni topshirish;

v) musobaqa davrida vazirlikning Matbuot xizmatiga musobaqaga oid fotolavhalar va to'liq ma'lumotlarni kunma-kun berib borish vazifalari yuklatilsin.

7. Sirdaryo viloyati turizm va sport bosh boshqarmasi:

a) musobaqani o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalari"ga asosan Sirdaryo viloyati hokimligidan tegishli ruxsatnoma olish;

b) musobaqani tashkil etishda Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabiga amaliy yordam ko'rsatish vazifalari yuklansin.


8. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalariga ushbu musobaqada o'zlarining terma jamoasi ishtirokini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalari hamda vazirlik tizimidagi respublika tizim tashkilot hamda muassasalari rahbarlariga mazkur buyruqning 1-ilovasiga muvofiq tegishlilik bo'yicha xodimlarni musobaqada ishtirok etishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin

10. Devonxonaga mazkur buyruq nusxasini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalari hamda Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabiga yuborish vazifasi yuklatilsin.

11. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Vazirning birinchi
o'rinbosari**



U. Azamov

Turizm va sport vazirligining
2021-yil "30" *iyul* dagi
33000 sonli buyrug'iga
1-ilova

**Sportning basketbol turi bo'yicha 2007-2008-yillarda tug'ilgan o'smirlar
o'rtasida BO'BL 2-tur musobaqasini o'tkazishda ishtirok
etuvchi xodimlar tarkibi**

T/r	Familiyasi va ismi	Lavozimi	Yashash joyi	Ish joyi
1.	Pasxin Yuriy	bosh hakam	Toshkent shahar	O'zbekiston basketbol federatsiyasi
2.	Xashimov Dilshod	hakam	Toshkent shahar	O'zbekiston basketbol federatsiyasi musobaqa koordinatori
3.	Abduvaliyeva Zebo	hakam	Namangan viloyati	O'zbekiston milliy universiteti 2-bosqich talabasi
4.	G'aniyev Ravshan	hakam	Toshkent shahar	O'zbekiston basketbol federatsiyasi bosh kotibi
5.	Ergashev Alisher	hakam	Namangan viloyati	Namangan viloyati, O'ychi shahri bolalar-o'smirlar sport maktabi treneri
6.	Osmanov Enver	hakam	Namangan viloyati	Namangan viloyati sportning o'yin turlari va yengil atletika bo'yicha ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktabi treneri

Sportning basketbol turi bo'yicha 2007-2008-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida BO'BL 2-tur musobaqasini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ'ib qilishga qaratilgan

MEDIA-REJA

T/r	Tadbirlar nomi	Muddati	Mas'ul ijrochi	Yoritiladigan ommaviy axborot vositalari
1.	Sportning basketbol turi bo'yicha 2007-2008-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida BO'BL 2-tur musobaqasini oldidan OAV hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali o'tkaziladigan tadbir haqida anons xarakteridagi materiallar berib borish	Tadbirdan 5 kun avval boshlanadi	Matbuot xizmati, "Milliy PR-markazi" DUK, Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi, O'zbekiston Basketbol federatsiyasi	«O'zbekiston 24», «Sport», «Toshkent», «Yoshlar», «UzReport», «Sevimli», «Zo'r TV», «Mening yurtim» telekanallari O'ZA, «Dunyo» AA, minsport.uz, olympyc.uz, olamsport.com, sports.uz, xs.uz veb-saytlari «Yangi O'zbekiston»/«Pravda Vostoka», «Xalq so'zi»/«Narodnoe slovo» gazetalari
2.	Sportning basketbol turi bo'yicha 2007-2008-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida BO'BL 2-tur musobaqasiga bag'ishlangan anons shaklida videorolik tayyorlash hamda uni barcha telekanallar orqali efirga uzatish	Tadbirdan 5 kun avval boshlanadi	Matbuot xizmati, "Milliy PR-markazi" DUK, Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi, O'zbekiston Basketbol federatsiyasi	«O'zbekiston 24», «Sport», «Toshkent», «Yoshlar», «UzReport», «Sevimli», «Zo'r TV», «Mening yurtim» telekanallari O'ZA, «Dunyo» AA, minsport.uz, xs.uz veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari
3.	Sportning basketbol turi bo'yicha 2007-2008-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida BO'BL 2-tur musobaqasi	Tadbir davomida	Matbuot xizmati, "Milliy PR-markazi" DUK,	«O'zbekiston 24», «Sport», «Toshkent», «Yoshlar», «UzReport», «Sevimli», «Zo'r TV», «Mening yurtim» telekanallari

	ishtirokchilari uchun tadbir o'tkaziladigan hududdagi tarixiy va me'moriy obidalarga ekskursiyalarni tashkil etish va OAVda keng yoritish		Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi, O'zbekiston Basketbol federatsiyasi	O'za, «Dunyo» AA, minsport.uz, olympic.uz, olamsport.com, sports.uz, xs.uz veb-saytlari «Yangi O'zbekiston»/ «Pravda Vostoka», «Xalq so'zi»/«Narodnoe slovo» gazetalar va boshqalar
4.	Sportning basketbol turi bo'yicha 2007-2008-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida BO'BL 2-tur musobaqasini OAVda keng yoritish, reportaj va intervyular tashkil etish	Turnir davomida	Matbuot xizmati, "Milliy PR-markazi" DUK, Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi, O'zbekiston Basketbol federatsiyasi	«O'zbekiston 24», «Sport», «Toshkent», «Yoshlar», «UzReport», «Sevimli», «Zo'r TV», «Mening yurtim» telekanallari O'za, «Dunyo» AA, minsport.uz, olympic.uz, olamsport.com, sports.uz, xs.uz veb-saytlari «Yangi O'zbekiston»/ «Pravda Vostoka», «Xalq so'zi»/«Narodnoe slovo», «O'zbekiston ovozi», «Sport», «Ishonch» gazetalar